



IQTISODIY RIVOJLANISHGA INVESTITSION MUHIT TA'SIRI VA UNGA BOG'LIQ OMILLAR TAHLILI

Butayev Javlonbek
Inatillo o'g'li

TDIU katta o'qituvchisi

Aliqulov Sunnatillo
Maqsudjon o'g'li

TDIU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahon amaliyoti va tadqiqotlari o'rganilib, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishda sarmoyaviy faoliyat muhim o'rin tutishi, ular orqali iqtisodiy va ijtimoiy sohalar hamda aholini ish bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari yuqorilashiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, milliy iqtisodiyot, xorijiy investitsiya, investitsion muhit, jahon bozori, iqtisodiy o'sish, texnika, texnologiya, eksport, import, investor.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish, rekonstruksiya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu, avvalambor, aholi bandligi, uning daromadlarini oshirish kabi muhim ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyatini beradi. Shu boisdan ham, mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy va moliyaviy tomondan rag'batlantirish, ularga zaruriy sharoitlarni yaratib berishni davlat siyosati darajasida ko'tarish har jihatdan maqbul yo'l hisoblanadi. Zotan, mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoq va sohalariga xorijiy investitsiyalarni kiritmasdan turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash, shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi:

- mahalliy ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarning joriy etilishi ta'minlanadi;
- respublika iqtisodiyoti uchun yangi bo'lgan zamonaviy kasblar paydo bo'ladi, qo'shimcha va yangi ish o'rinlari tashkil etiladi, iqtisodiyotda bandlar soni ko'payib, aholining daromadi o'sadi;

- aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati oshadi;
- eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish kengayadi. Bu esa, o'z navbatida, valyuta tushumining oshishiga olib keladi;
- import o'rnini bosuvchi tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yiladi (valyuta chiqib ketishining oldi olinadi);
- korxona va tashkilotlarning ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari iste'moldan chiqib, moddiytexnik bazasi yangilanadi, resurslar unumdorligi oshadi.

Shularni e'tiborga olib, mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, real sektor korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ustuvorlik qaratilmoqda. Buning uchun, eng avvalo, mamlakatning investitsion muhit jozibadorligini ta'minlash talab etiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasining guvohlik berishicha, chet el investitsiyalari-ning iqtisodiyotga jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy topishida hal qiluvchi omil vazifasini o'tagan.

Dunyoda investitsiyalarni joylashtirish va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha raqobat shiddat bilan davom etmoqda. Bir tomondan, transmilliy kompaniyalarning rivojlanib borayotganligi, ikkinchi tomondan, resurslarga egalik qilish borasida bozorlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq tadbirlarning faollashuvi, uchinchi tomondan, globallashtirish sharoitida jahonni qurshab olgan moliyaviy inqirozning yuqori ta'siri, siyosiy vaziyatlarning nobarqarorligi kabi omillar investorlarning qarorlarida hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Kelajakda ma'lum bir foydani ko'zlab harakat qilayotgan investor o'z mablag'ining tegishli qismini bugunning o'zida qurbon qilish bilan bog'liq tavakkalchilikka qo'l uradi. Buning uchun investor xalqaro maydonda yuz berayotgan vaziyatni, investitsiyalar bozorida ro'y berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy tendensiyalarni tahlil qilishi, iqtisodiy-moliyaviy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida hukumatlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarni kuzatib borishi talab etiladi.

Amaliy hayotda investorlar biror bir mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni kiritishi bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilishi uchun o'sha mamlakatlarning biznesni tashkil etish va uni yuritish uchun yaratgan shart-sharoitlari, investitsion muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, xususan, xorijiy kompaniyalarning hech qanday moneliksiz kirib kelishi, faoliyat olib borishi uchun erkin iqtisodiy va maxsus zonalarining tashkil etilganligi, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarning mavjudligiga e'tibor qaratishadi. Shuning uchun ham ko'pgina rivojlangan transmilliy kompaniyalar to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni biror bir mamlakat iqtisodiyotiga kiritishdan oldin mamlakatning investitsiya muhitini ma'lum iqtisodiy indikatorlardan foydalangan holda baholaydi, ular, odatda, xalqaro indekslar shaklida ifodalanadi.

Shuningdek, investitsion loyihalar strategiyasini tuzishda quyidagi to'rt elementga ko'proq e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir [1]:

- geografik joy;

- bozor hissasi;
- mahsulot-bozor aloqasi;
- raqobat va bozor mukammallashuvi.

Mamlakatimizga xorijiy va milliy investitsiyalarni jalb qilishda hududlarda yaratilgan investitsion jozibadorlik, qulay investitsion muhit va hududlarning nisbiy afzalliklari muhim o‘rin tutadi. Aynan yuqoridagi omillarga xorijiy investorlar tomonidan alohida e‘tibor beriladi. Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlashda turli uslublardan foydalaniladi. Ularning bir-biridan farqi investitsion muhitni belgilaydigan omil va indikatorlarni tanlab olishda namoyon bo‘ladi. Yurtimiz olimlarining tadqiqotlariga ko‘ra, hududlarning investitsion jozibadorlik indeksi oltita element asosida hisoblanadi va shu bo‘yicha integral indeks aniqlanadi. Buni biz quyidagi jadval ma‘lumotlaridan bilib olishimiz mumkin (1 -jadval).

1-jadval

Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlash elementlari [3].

№	Hududlar	Hududning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasi	Hududning moliyaviy resurslar bilan ta‘minishi	Investitsion infratuzilma rivojlanish darajasi	Hududning demografik tavsifi	Institutsional o‘zgarishlar va rivojlanish darajasi	Hududning investitsion faoliyat xavfsizligi darajasi	Mutlaq integral ko‘rsatkich
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0,0064	0,121	0,085	0,222	0,559	0,535	0,234
2.	Andijon	0,341	0,151	0,276	0,426	0,560	0,594	0,367
3.	Buxoro	0,304	0,144	0,165	0,413	0,509	0,511	0,315
4.	Jizzax	0,198	0,049	0,075	0,388	0,496	0,506	0,151
5.	Qashqadaryo	0,362	0,542	0,266	0,382	0,370	0,386	0,382
6.	Navoiy	0,536	0,189	0,218	0,348	0,348	0,439	0,338
7.	Namangan	0,141	0,118	0,183	0,374	0,531	0,554	0,285
8.	Samarqand	0,181	0,234	0,154	0,401	0,607	0,522	0,322
9.	Surxondaryo	0,150	0,101	0,104	0,324	0,549	0,422	0,250
10.	Sirdaryo	0,185	0,037	0,147	0,320	0,317	0,723	0,247
11.	Toshkent	0,434	0,197	0,366	0,493	0,611	0,362	0,404
12.	Farg‘ona	0,317	0,241	0,331	0,470	0,289	0,573	0,347
13.	Xorazm	0,171	0,113	0,199	0,310	0,529	0,535	0,284
14.	Toshkent.sh	0,837	0,793	0,701	0,820	0,580	0,845	0,755

Birinchi guruhga Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo, Andijon va Farg‘ona viloyatlari kiradi hamda ular investorlar uchun eng qulay investitsion imkoniyatlarga ega hisoblanadi (indeks 0,755-0,347). Investitsion jozibadorlikning yuqori bo‘lishi ushbu hududlarda tabiiy ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat, infratuzilma, jumladan, transport va axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan belgilanadi. Ikkinchi guruhni Samarqand, Buxoro, Navoiy va Namangan viloyatlari tashkil etadi (indeks 0,322-0,288). Ushbu hududlar xorijiy investorlarning qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalar faoliyat ko‘rsatayotganiga qiziqishi bilan belgilanadi.

Uchinchi guruhga nisbatan kam rivojlangan hududlar – Xorazm, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi kiradi (0,284-0,234). Bu hududlarda boshqa hududlarga nisbatan mavjud infrastruktura holatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, tabiiy iqtisodiy, investitsiya muhitining a‘lo darajada emasligi mazkur hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlatning ishtiroki yuqori bo‘lishi lozimligini belgilaydi. Mamlakat hududlariga xorijiy investorlarni keng

jalb qilishda hududlarning investitsion jozibadorlik ko'rsatkichidan tashqari boshqa bir nechta alohida ko'rsatkichlar orqali ham hududning iqtisodiy-investitsion salohiyatini aniqlash mumkin bo'lib, ular, eng avvalo, investitsiya faoliyatiga doir (umumiy) hududiy huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amal qilish darajasi, hududlarning YaHM, tadbirkorlikni boshlash va ishbilarmonlik muhiti indeksi, hududlardagi mavjud infrastruktura hamda ishchi kuchining malakasi, tabiiy resurslar salohiyati va boshqalardir. Har bir investor hududlarga berilgan alohida imtiyoz yoki qo'shimcha yengilliklar bor yoki yo'qligi bilan ham qiziqadi. Hududlarda yuqoridagi ko'rsatkichlarning talab darajasida ekanligi esa investor uchun kafolat vazifasini bajaradi.

Xorijiy investorlarni hududlarga keng jalb qilish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini va investitsiya muhitini yaxshilovchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mavjud huquqiy-qonunchilik sohasini takomillashganligi;
- investitsion ma'lumotlar yagona bazasining yaratilganligi hamda ochiqqligi;
- hududlarni boshqarish darajasi, ma'muriy to'siqlarning kamligi;
- soliq va kredit tizimining maqbulligi;
- transport va aloqa infrastruktura holatining rivojlanganligi;
- iqtisodiyotning ochiqqligi;
- hududning obro'si (imidji) yuqoriligi;
- bank-moliya va sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining yuqoriligi;
- hududiy imtiyoz va qo'shimcha yengilliklarning mavjudligi va boshqalar.

Hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasi o'laroq mamlakatimizning barcha hududlarida investitsiyalar oqimi yildan yilga oshib bormoqda. Hududlar rivojlanishi bo'yicha oldinda bo'lgan Toshkent shahri, Samarqand, Navoiy, Farg'ona, Qashqadaryo hamda Namangan viloyatlarida asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori boshqa hududlarga nisbatan ko'proqni tashkil etmoqda. Ushbu hududlarda so'nggi yillarda qiymati 5–7 milliard AQSh dollarigacha bo'lgan yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilgan. Bu esa u yerda rivojlangan infratuzilma, qulay investitsion muhit, malakali ishchi kuchi, ishlab chiqarish resurslarining oqilona taqsimlanganligi va tabiiy boyliklarning mavjudligi bilan bog'liq.

Masalan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, faqatgina Toshkent shahrining o'zida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 40,2 trln so'mni tashkil qilgan. Buxoroda bu ko'rsatkich 35,3 trln, Samarqandda 30,5 trln, Namanganda 30,7 trln va Navoiy viloyatida 23,4 trln so'mga yetgan.

Aksincha, Xorazm, Sirdaryo, Surxondaryo va Andijon viloyatlarida bu ko'rsatkich ancha past bo'lib, masalan, Xorazm viloyatiga 6,6 trln so'm, Sirdaryoga 7,1 trln so'm, Surxondaryoga esa 11,8 trln so'mlik kapital qo'yilmalar kiritilgan [4].

Bunday tafovutlarning asosiy sababi – yirik strategik investitsiya loyihalarining hududlar bo'yicha turli davrlarda amalga oshirilishidir. Masalan, 2014–2017-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida Surgil gaz-kimyoy kompleks, 2019–2020-yillarda Buxoroda Qandim gaz koni asosidagi kompleks ishga tushirilgan.

2022–2024-yillarda ham O‘zbekistonning turli hududlarida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Masalan, 2023-yilda umumiy qiymati 2 milliard AQSh dollariga teng bo‘lgan 465 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan bo‘lib, bu loyihalarning 1,2 milliard dollari xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga moliyalashtirilgan. Ushbu loyihalar natijasida 15 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilgan.

Hududlar kesimida esa Navoiy viloyatida "Qizilqumsement" AJda 126 million dollar investitsiya hisobiga yiliga 1,8 million tonna klinker ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish loyihasi amalga oshirilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qorao‘zak tumanida esa 65 million dollar investitsiya hisobiga "Qoraqalpoqsement" MCHJ QKda yuqori markali sement ishlab chiqarishni 1,1 million tonnaga kengaytirish ishlari amalga oshirilgan.

2024-yilda esa O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 333,8 trillion so‘mni (taxminan 26,39 milliard AQSh dollari) tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 152,1% o‘sishni anglatadi. Eng katta investitsiya hajmi Toshkent shahri (40,2 trillion so‘m), Samarqand viloyati (30,5 trillion so‘m) va Farg‘ona viloyati (18,1 trillion so‘m)da qayd etilgan.

Shuningdek, 2023-yilda Toshkent shahrida "Oriyent Keramik" MCHJ tomonidan yillik quvvati 9 million kvadrat metr bo‘lgan keramik plitkalar ishlab chiqarish zavodi ishga tushirilgan. Loyihaning umumiy qiymati 60 million dollarni tashkil etadi va 200 ta yangi ish o‘rni yaratilgan [5].

Bu kabi yirik investitsiya loyihalarining turli hududlarda amalga oshirilishi, hududlar o‘rtasidagi investitsiya miqdorlaridagi tafovutlarni izohlaydi. Har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, mavjud resurslari va infratuzilmasi ushbu loyihalarning joylashuviga ta'sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotdan kelib chiqib, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash yo‘nalishlariga: investitsiya siyosati, xususiy mulk dahlsizligi, aloqa va transport infratuzilmasi, tashqi va ichki bozor sig‘imi, raqobat muhiti, xom ashyo va ish haqi xarajatlari, intellektual salohiyat hamda aholi daromadi kabilarni kiritish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, aksar rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qaraganda investitsiyalardan samarasiz foydalanish holatlari ko‘proq. Masalan, ular investitsiyalarning asosiy qismini noishlab chiqarish, ya’ni ijtimoiy obyektlar yoki yirik ishlab chiqarish korxonalarining ma’muriy binolarini qurish kabi passiv yo‘nalishlarga sarflashadi. Vaholanki, investitsiya bu shunchaki sarflab yuboriladigan mablag‘ emas, balki, foyda olish maqsad qilingan va qachondir qaytarilishi (o‘rni qoplanishi) kerak bo‘lgan aylanma kapitaldir. Shu bois, tadqiqot natijasiga ko‘ra, investitsiyalardan samarali foydalanishda shaffof investitsiya siyosatini yuritish, raqobat muhiti yaratish, investorlar huquqini himoya qilish, tashqi va ichki bozorlar, aloqa va transport infratuzilmasini yaxshilash, risk–investitsiya–foйда o‘rtasidagi nisbatlarni chuqur tahlil qilish, investitsiyalarni qo‘shimcha qiymat yaratiladigan yetakchi sohalarga yo‘naltirish va samarali foydalanish kabilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Xujamkulov D.Y., Ismailov D.A., 2019. Investitsiya loyihalarini boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU.
2. <https://www.oecd.org/investment/statistics.htm>
- 3.Manba: Asqarova M.T., Hakimov H.A. Makroiqtisodiy siyosat. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2016. 314 b.
- 4.O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi, <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>.
- 5.O'zbekiston Milliy axborot agentligi, <https://uza.uz>